

*№ 3 (3) - 2023*

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ**  
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
ELECTRONIC JOURNAL

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 3 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

**Юлдашев Анвар Эргашевич** – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Мавланов Укташ Махмасабирович** – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Хазраткулов Аброр** – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

**Ҳакимов Назар Ҳакимович** – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

**Яхшиликов Жўрабой** – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

**Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич** – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

**Ҳошимхонов Мўмин** – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

**Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна** – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### **ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

**Ахмедов Ойбек Сапорбаевич** – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

**Қўчимов Шуҳрат Норқизилович** – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

**Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна** – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

**Кучкаров Рахман Урманович** – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

**Юнусов Мансур Абдуллаевич** – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Сайдов Улугбек Арипович** – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **ЮРИДИК ФАНЛАР:**

**Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна** – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

**Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна** – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

**Эсанова Замира Нормуротовна** – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

**Зулфиқоров Шерзод Хуррамович** – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфисилиги университети;

**Хайитов Хушвақт Сапарбаевич** – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Асадов Шавкат Ғайбуллаевич** – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Сайдуллаев Шахзод Алиханович** – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети.

### **ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

**Хашимова Дильдархон Уринбоевна** – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

**Ибрагимова Гулнора Хавазматовна** – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

**Закирова Феруза Махмудовна** – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот

технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

**Тайланова Шохидা Зайнисевна** – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### **ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

**Каримова Васила Маманосировна** – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

**Ҳайитов Ойбек Эшбоевич** – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

**Умарова Навбаҳор Шокировна** – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

**Атабаева Наргис Батировна** – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

**Қодиров Обид Сафарович** – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### **СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

**Латипова Нодира Мухтаржановна** – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллый университети кафедра мудири;

**Сеитов Азамат Пўлатович** – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллый университети;

**Содиқова Шоҳида Марҳабоевна** – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### **СИЁСИЙ ФАНЛАР**

**Назаров Насриддин Атакулович** –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура курилиш институти;

**Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич** –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллый университети кафедра мудири.

---

#### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

#### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

#### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**“Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамият.

#### **Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй.

#### **Электрон манзил:**

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

## **МУНДАРИЖА**

### **07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Axmedov Jasurbek, Jabborova Gavharshod*  
QANQA ARXEOLOGIK YODGORLIGINI MUZEYLASHTIRISH MASALASI ..... 9-14

*Шуҳрат Эргашев*  
ФРАНЦИЯДА ИККИНЧИ РЕСПУБЛИКА ИНҚИРОЗИ ВА 1851 ЙИЛГИ ДАВЛАТ  
ТҮНТАРИШИ ..... 15-23

*Касимова Шахноза Алишеровна*  
ПРИЕМЫ ЭФФЕКТИВНОЙ КОММУНИКАЦИИ В МУЗЕЙНОЙ ЭКСКУРСИИ ..... 24-29

### **08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Файзиева Ширин Шодмоновна*  
АГРОКЛАСТЕРЛАР ВА МАҲСУЛОТ ЕТИШТИРУВЧИЛАР ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИКНИНГ  
ИҚТИСОДИЁТДА ТУТГАН ЎРНИ ..... 30-35

*Musagaliyev Ajsiniaz Жумагулович, Dустова Мухайё Худайбердиевна*  
ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИНИ Қўллаб-қувватлаш борасидағи айрим  
МАСАЛАЛАР ..... 36-41

*Murodova Nargiza Utkirovna*  
TURIZM MARKETING FAOLIYATIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING AHAMIYATI ..... 42-47

*Kuchkarov Baxrom Kuziyevich, O'rmonov Xasanboy Xaydarovich*  
KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY TO'LOVGA LAYOQATSIZLIGI XAVFINI ANIQLASH ..... 48-55

*Temirova Feruza Sagdullayevna*  
MARKETINGNING ZAMONAVIY TEHNOLOGIYASI -  
BRENDING FAOLIYATINI RIVOJLANТИRISH ..... 56-62

*Sobirova Marhabo Haitovna*  
MEVA-SABZAVOT KOOPERATSIYASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH  
YO'LLARI ..... 63-67

*Mamajonova Gulasal Oribjon qizi*  
KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNING  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI ..... 68-77

*Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich*  
O'ZBEKİSTON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYA RISKLARINI  
BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ..... 78-87

<i>Тўхтамишов Азиз Қаҳрамонович</i>	
КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ АСОСИДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИНГ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ МОҲИЯТИ, МАЗМУНИ ВА ТАМОЙИЛЛАРИ .....	88-101
<i>Каржавова Хуршида Абдумаликовна</i>	
МАҲАЛЛА ТИЗИМИДА ИННОВАЦИОН ИЖТИМОЙ ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	102-110
<i>Soliyev Dilmurod Jamolovich</i>	
AYLANMA MABLAG'LARNI SAMARALI BOSHQARISH KORXONA FAROVONLIGINING ASOSIDIR .....	111-119
<i>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH MASALALARI .....	120-130

## 09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Тўраев Шавкат Нишонович</i>	
ЖАМИЯТ МАФКУРАСИ ИЖТИМОЙ САФАРБАР ЭТИШНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИ .....	131-137
<i>Qodirov Davronbek Hoshimovich</i>	
TASAVVUF TA'LIMOTINING NAZARIYOTCHISI – ABULQOSIM QUSHAYRIY .....	138-143
<i>Sharipov Dilshod Baxshilloyevich</i>	
TINCHLIKNING UNIVERSAL (DUNYOVIIY) TARTIB BO'YICHA TAHLILI .....	144-148

## 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Гаппаров Алибек Қаршибоевич</i>	
ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЛЕКСИКАНИНГ СОЦИОЛИНГВИСТИК АСПЕКТИ .....	149-155
<i>Fayzieva Zuxra, Sharipova Yoqt Qudratillayevna</i>	
APPLICATION OF GAME TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE TO THE BLIND AND VISUALLY IMPAIRED .....	156-161
<i>Ахмедшина Лилия Рафаэльевна</i>	
РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТОВ «МУЖ » и «ЖЕНА» В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ.....	162-166
<i>Kholmuminova Makhliyo</i>	
DIFFERENCE BETWEEN MEANINGS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES .....	167-171
<i>Shirinova Yekaterina</i>	
NUTQIY TAFAKKURNING PSIXOLINGVISTIK MUAMMOLARI .....	172-178

## **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

<i>Кутлымуратов Фарҳад Қалбаевич</i> ЮРИДИК ШАХСНИ ҚАЙТА ТАШКИЛ ЭТИШДА СОЛИДАР ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ .....	179-185
<i>Kasimov Nodirjon Sodikjonovich</i> QASDDAN ODAM O'LDIRISH JINOYATINING TUSHUNCHASI, TAVSIFI VA JINOIY HUQUQIY XUSUSIYATLARI .....	186-196
<i>Урманбаева Ферузахон Саттаровна</i> ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИКНИНГ ЗАРУРИЯТИ ВА МОҲИЯТИ .....	197-203

## **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<i>Tursunaliyev Ilhomjon Axmedovich</i> “HAYOT DAVOMIDA TA'LIM” – JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMI SIFATIDA (NAZARIY JIHATLAR TAHLILI) .....	204-210
<i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i> BO'LAJAK REJISSLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TRENING MASHQLARINING AMALIY AHAMIYATI .....	211-217
<i>Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich</i> YUQORI SINF O'QUVCHILARIDA QAT'IYATLILIK SIFATINI JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA TARBIYALASH .....	218-223
<i>Бабаходжаева Наргиза Мухитдиновна</i> ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ ПСИХОЛОГИК-ПЕДАГОГИК ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ .....	224-229
<i>Mengliqulov Xayrulla Aliqulovich</i> HARAKATLI O'YINLAR ORQALI 14-15 YOSHLI SUZUVCHLARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH .....	230-236
<i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i> ADVANCED PEDAGOGICAL EXPERIENCES IN ORGANIZING AND DEVELOPING THE EDUCATIONAL PROCESS ON THE BASE OF DIGITAL TECHNOLOGIES .....	237-244
<i>Yusupov Dilmurod Abdurashidovich</i> YADRO FIZIKASI BO'LIMLARINI O'QITISHDA INNOVATSION KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TALABALAR FAOLLIGINI OSHIRISH .....	245-254
<i>Ergashev Omonboy Turgunbayevich</i> TALABALARNING BADIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ZARURATI VA PEDAGOGIK ASOSLARI .....	255-260

<i>Ruzmetova Novval Vahabdjanovna</i>	
THE ROLE OF FOLK TRADITIONS IN FORMING LEGAL CULTURE OF STUDENTS OF LAW SCHOOLS .....	261-269
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i>	
BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA MILLIY SPORT TURLARI ASOSIDA AMALIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI .....	270-274
<i>Makhmudov Furqat Djumaboyevich</i>	
YORUG'LIK KVANT NAZARIYASINING VUJUDGA KELISHI. YORUG'LIK KVANTI MAVZUSINI O'QITISH USULLARI .....	275-281
<i>Бабахова Гулзиба Зиятбаевна</i>	
К ВОПРОСУ МЕТОДИКИ ИЗУЧЕНИЯ ТЕОРИИ АТОМОВ ВОДОРОДА ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ КУРСА КВАНТОВАЯ МЕХАНИКА .....	282-289
<i>Dexkanov Sherzod Abdumatalibovich</i>	
KAFEDRALARARO BITIRUV MALAKAVIY ISHLARINI TAYYORLASH – SIFATLI TA'LIMNI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA .....	290-296
<i>Ҳакимова Мұқаддас Ҳасановна</i>	
КОМПЕТЕНТЛИ ЁНДАШУВ АСОСИДА БҮЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ИЖОДКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ.....	297-301

13.00.00 – Педагогика фанлари

**Mamatqosimov Jahongir Abirkulovich**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti dotsenti,  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## **BO'LAJAK REJISSORLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TRENING MASHQLARINING AMALIY AHAMIYATI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo'lajak rejissorlarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda trening mashqlaridan foydalanish amaliy ahamiyati yoritilgan bo'lib, maqolada bo'lajak rejissorlar trening mashqlarining mazmuni uni o'tkazilish mazmuni yoritilgan. Bo'lajak rejissorlarni xotira, diqqat va tasavvurga oid trening mashqlari orqali kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish usullari berilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy kompetensiya, rejissor, aktyor, bo'lajak rejissor, pedagog, sahna, ijodiy ustaxona, trening mashqlari, diqqat, xotira, tasavvur.

**Маматкасимов Джахангир Абиркулович**

доцент Государственного института искусства и культуры Узбекистана,  
доктор философии в области педагогических наук (PhD)

## **ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ УЧЕБНЫХ ЗАНЯТИЙ В ПОВЫШЕНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ РЕЖИССЁРОВ**

**Аннотация.** В данной статье описывается практическое значение использования учебных упражнений в совершенствовании профессиональных компетенций будущих режиссёров, а также содержание учебных упражнений и их реализация. Приведены методики повышения профессиональной компетентности будущих режиссёров через упражнения по тренировке памяти, внимания и воображения.

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность, режиссер, актер, будущий режиссер, педагог, сцена, творческая мастерская, учебные упражнения, внимание, память, воображение.

**Mamatkasimov Jahangir Abirkulovich**

Associate Professor of Uzbekistan State Institute of arts and culture  
Doctor of Philosophy (PhD) in the field of Pedagogical sciences

## **THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF TRAINING IN INCREASING THE PROFESSIONAL COMPETENCES OF FUTURE DIRECTORS**

**Abstract.** This article describes the practical significance of using training exercises in improving the professional competencies of future directors, as well as the content of training exercises and their implementation. Methods for increasing the professional competence of future directors through exercises to train memory, attention and imagination are given.

**Key words:** professional competence, director, actor, future director, teacher, stage, creative workshop, training exercises, attention, memory, imagination.



<https://doi.org/10.47390/1342V3I3Y2023N28>

**Kirish.** Rejissura ijodiy jarayon bo'lib, uning bosh lokomotivi bu – rejissordir. Rejissor jamoa mehnatini badiiy mutonosiblikda umumlashtirgan holda tomoshabinga xavola etadi. Tomoshabin har qanday ijod mahsulini ijobiy qabul qilish uchun, rejissor kuchli tafakkur sohibi bo'lish bilan birgalikda o'z kasbining mohir ijodkori, jamiyatning ilg'or kishisi, jamoaning jonkuyari, eng muhimmi rejissorlik kasbiy kompetensiyalarini qunt bilan o'zlashtirgan va amaliyotga mustaqil tatbiq eta oladigan shaxsdir.

Rejissorlik inson ongi, tafakkuri va ma'naviyati bilan bog'liq soha bo'lib, o'z o'rnila mas'uliyatli va mashaqqatli kasbdir. XXI-asr rejissori nafaqat o'z sohasining kuchli bilimdoni, balki, barcha sohalarning bilimdoni bo'lmos'i lozim. Rejissorlik qobiliyati eng avvalo ona qornida shakllanib, so'ngra oila, mahalla va ta'llim muassasalarida rivojlanadi [6; 99-b].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Karl Gacheman o'zining "Rejissor" degan kitobida rejissor ishga muhabbat bilan qarashdan tashqari, axloqiy va amaliy bilimlarni o'zida mujassamlashtirishi, pok axloqli va yuksak didli, dramaturgiya sohasiga oid nazariy bilimlar bilan qurollangan bo'lishi hamda teatrning serqirra ko'makchi vositalarini yaxshi bilishi shart deb ta'kidlaydi. Shuningdek, u avvalo, shoir bo'lmos'i darkor, unda bezakchi rassomning bir ulushi, xususan ranglarni his etish va kenglikni idrok qilishdek noyob fazilatlar bo'lishi, musiqa va kishi ovozining eng nozik jihatlarini ilg'ab olish darajasidagi ziyrakligi, davr ruhini yaxshi his etish, inson psixologiyasini, ruhiyatini chuqur anglash, aktyor va uning ijodidan to'laqonli xabardor bo'lish kerakligi qayd etadi [7; 95-b].

Yuqorida fikrlarni mantiqiy davom ettirgan holda, shuni qayd etish lozimki rejissoring kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda avvalo kadrlar tayyorlash jarayoniga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Kadrlarni tayyorlashda sohaning ibtidosi sanalmish trening mashqlari muhim amaliy ahamiyatga ega.

Bo'lajak rejissorlarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda trening mashqlarining amaliy ahamiyati yuzasidan B.Sayfullayev [7], F.Ahmedov [1], J.Mahmudov [3], H.Mahmudova [4], R.Usmonov [9], B.Xolmirzayev [10], M.Umarov, T.Yuldashev [8], M.Yusupova [11], F.Egamberdiyev [2], J.Mamatqosimov [7] kabi tadqiqotchilarining teatr ta'limi amaliyotiga joriy etilgan o'quv metodik adabiyotlarida bo'lajak rejissorlar uchun mazkur ijodiy uslublarning ahamiyati va mohiyati, shuningdek rejissura nazariyasi va amaliyotiga oid ma'lumotlar yoritilgan.

"Trening" tushunchasi (ingliz tilidan "tarbiyalash", "o'rgatish") inson ongi va tanasini muntazam mashqlar va ortib boruvchi talablar oraqali takomillashtirish deb ta'rifланади. Bu mashqlar har bir bo'lajak rejissor va aktyor uchun birinchi darajada muhimligi sohaviy qonun aylangan bo'lib, mutaxassislikning birinchi talabi.

**Tahlil va natijalar.** Tabiatda mo'jiza o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Uning ortida tinimsiz, mashaqqatli mehnat yotibdi. Rejissoring har qanday rejasি, o'ylagan maqsadi mashqsiz to'satdan amalga oshmaydi. Spektakldagi har bir topilma, aktyorning qiyofa yaratishidagi xattiharakati izlanishlar natijasida yuzaga keladi. Mashhur rejissor Georgiy Tovstanogov "Teatr iqtidorni tarbiyalaydi, buloqning ko'zini ochganday mashqlar evaziga unga imkoniyatlar yaratadi" – deb ta'kidlagan bo'lsa, mashhur teatr rejissori Anatoliy Efros "Mashq – mening muhabbatim" deydi. Darhaqiqat mashq tufayligina rejissor ham, aktyor ham idrok qiladi,

asarning mag'zini, yechimini topadi. Ko'pincha teatrda mashq paytida ijodiy muhit hukm suradi, hech kim halal bermaydi, pashsha uchgani bilinadi. Bu ijodiy jarayon [5; 99-b].

Trening mashqlari maxsus ijodiy ustaxonalarda o'tkazilishi lozim bo'lib, bunda barcha talabalar mutaxassislik libosida bo'lishi talab etiladi. O'qituvchi dars jarayonida talabalarga umumiy yoki yakka tartibda ularning individual xususiyatini hisobga olib turli mashqlar berishi mumkin. Masalan, talabaning tasavvurini rivojlantirish uchun bir talabani sahnaga chiqarib, faraz shaklida: uning keng dalada ketayotganligi, oldidan to'satdan baland tik jarlik chiqib qolganini vazifa qilib berishi va talabaning o'sha sharoitda o'zini qanday tutishi kerakligi bo'yicha mashqlar o'tkazishi, yoki sahnaga chizilgan to'g'ri chiziqni osmondagи dor sifatida faraz qilib, undan yurib o'tishni, ariqdan sakrashni va shu kabi mashqlarni berib, talabalarning tasavvurini boyitishi mumkin.

Talabalarga umumiy guruh uchun ham mashqlar berilishi mumkin. Masalan, guruhni ikkiga bo'lib, ular bilan arqon tortish mashqini o'tkazish mumkin. Bu mashqni arqonsiz bajarish talab etiladi. Chunki talabalar, o'z oldida turgan sahnaviy hamrohini sezishi, buyumni his qilishi, raqib guruh munosabatini ko'rishi kerak bo'ladi. Bu mashqlar K.S.Stanislavskiy tomonidan ta'kidlangan ko'rish, sezish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish kabi sezgi a'zolarini jlonlantiradi.

Talabalarda beshta sezgi a'zolari orqali esida qolgan taassurotlarini sahnada qayta uyg'ota bilishning zarurligi shundan iboratki, aktyor doimo sahnada yasamali predmetlar bilan aloqada bo'lishi tabiiy. Spektakl davomida uning har bir predmetga o'z munosabatini bildirishi, bir nimalarni ichishi va yeyishi kerak bo'ladi. Unga esa haqiqiy ichimlik ichish o'rniga sahnaviy yasama ichimlik yoki yeyish kabilar taklif etiladi.

Mana shunday sahnaviy sharoitda, hayotiy harakat qilib, uni tomoshabinga ishonarli qilib yetkaza bilish uchun, bo'lajak rejissor yoki aktyor o'zining beshta sezgi a'zolarini, sahna talabiga javoban harakat qilishga tayyorlashi kerak. Mana shu qobiliyatning shakllanish yo'llari treningi mobaynida o'rgatiladi.

Masalan, beshta sezgi a'zolarini jlonlantirish uchun quyidagi mashqlarni bajarish mumkin:

1. Ko'rish a'zolari bo'yicha esda qolgan taassurotlarni esga keltirish mashqlari: ma'lum muddat oldin televizor orqali yoki Hayvonot bog'iga borganda bahaybat filni ko'rgani, filning yurish-turishini esga keltirish va uni ijro etib ko'rsatish; bog' va undagi uchib yurgan kapalaklarni esga keltirish va o'sha taassurotni ijro etib ko'rsata bilish; qish oylari, qorda, sovuqda, shamolda qolgan kishining holatini esga keltirish, uni hikoya qilib berish va h.k.

2. Eshitish a'zolari orqali esda qolgan taassurotlarni esga keltirish mashqlari: derazadan tashqarida bo'layotgan bo'ronga qulop solish va tasavvur qilish; qirg'oqqa kelib urilayotgan dengiz to'lqinlarining shovullashiga qulop solish va tasavvur qilish; uzoqdan eshitilayotgan childirma, nay, tanbur ovozlariga qulop solish va tasavvur qilish va h.k.

3. Hid bilish sezgi a'zolari orqali esda qolgan taassurotlarni esga keltirish mashqlari: dengiz, daryo, ko'l hidini esga keltirish va tasavvur qilish; qovurilgan mol, tovuq, g'oz go'shtlarini esga keltirish va tasavvur qilish va h.k.

4. Ta'm bilish sezgi a'zolari bo'yicha esda qolgan taassurotlarni esga keltirish mashqlari: muzqaymoq va garimdori ta'mini esga keltirish va tasavvur qilish; qovun, olcha ta'mini esga keltirish va tasavvur qilish va h.k.

5. Tana orqali sezgi a'zolari bo'yicha esda qolgan taassurotlarni esga keltirish mashqlari: biror bir jonivorni ushlab ko'rish yoki uni silash orqali sezish va tasavvur qilish: biror bir gazlamani, masalan ipak, jun, duxoba, kanob, gazlamalarini paypaslab ko'rish: paypaslab

ko'rish orqali ro'molcha, gazeta, kliyonka va gilam tagidagi predmetning nima ekanini aniqlatish va h.k.

Talabalar beshta sezgi a'zolari bo'yicha ishlangan mashqlarning hammasida predmetni sezishdan oldin ularning obrazlarini tasavvur qilib ko'ra bilishlari kerak. So'ng'ra o'z taassurotlarini esga keltirib his tuyg'ularini o'sha paytning o'zida uyg'ota olishi oson bo'ladi. Ko'z bilan ko'rish va qulq bilan eshitish-boshqa a'zolarga nisbatan ijodiy a'zolar ekanligini talabalarga eslatib o'tish kerak.

O'qituvchi trening davomida talabalarga sahna bo'ylab yurishga, chopishga, o'tirgan holatda yurishga, sahnaga yonlama yurishga ko'rsatma berishi, ularni hohlagan paytda to'xtatishi ("stop" signalini nazarda tutilmoqda) mumkin. Talabalar "Stop kadr"da qolishadi. Kimdir bir oyoqda, kimdir engashgan, yana kimdir qo'llari tepada va h.k.

O'qituvchi ularga "holatni oqlash" vazifasini topshiradi. "Holatni oqlash" bu to'xtagan holatni mantiqiy davom ettirishdir. ya'ni qo'llari tepada talaba – go'yoki sahnaviy hamroh bilan ko'ptok o'ynayotgandek, bir oyoqda qolgan talaba – o'zini xuddi cho'loqdek ko'rsatishi, engashgan talaba – to'satdan yiqilib o'zi to'xtagan holatni mantiqan davom ettirish mumkin. Bu mashqning talabaga foydasi shuki, avvalo talabaning ijro mahorati o'sadi, sahnadagi turli tasodifiy improvizatsion jihatlarga tayyor turadi. Tasavvuri va fikrlash doirasi kengayadi. Alovida jihatni butun tanani tezlikda miya orqali bo'ysindirishga va harakatga keltirishga erishadi.

Rejissorlik va aktyorlik mahoratini rivojlantirishda mashqlarning o'rni beqiyosdir. Chunki, rejissor va aktyor boshqa san'atkorlarga nisbatan, tabiatning ruhiy holatining turg'insizligini hisobga olgan holda hamisha va muntazam mashq qilishga muhtoj shaxsdir. O'z oldiga qo'yan maqsadni bajarish uchun uning psixo-fizik holati doim ijodiy tayyor turishi kerak. Agar sozanda soatlab o'z asbobi bilan kuyni mashq qilmasa, raqqosa tinimsiz o'z ustida shug'ullanmasa, hofiz nafas sozlab turmasa, kuni bekor o'tganday, aktyor ham o'z ovozini, jussasini, mahoratini uzlusiz charxlab turishi shart.

Talabaning fikrlash doirasini, tasavvuri va eng muhimi so'z boyligini kuchaytirish uchun talabalarga "Mantiqiy hikoya" yozish vazifasi beriladi. Unga ko'ra o'qituvchi tomonidan bir turkumga xos predmetlar ishtirokida, talabaga hikoya janrini o'zi tanlashi ixtiyorini (fantastik, komik va h.k. yo'nalishda) bergen ravishda, kichik hajmli hikoya yozish topshiriladi.

Mantiqiy hikoya talabaning gapga chechanligini, fikrlashini o'stirishi, tasavvur va fantaziyanı rivojlantirishni ta'minlaydi. Dunyoga dong'i ketgan dramaturglar ham o'z faoliyatini xuddi shu tartibda boshlaganini va o'z ustida tinimsiz ishlab katta-katta pesalar yaratganini inkor etmaydi. Bu bilan aktyor-talabalarni dramaturg bo'lishga undash emas, balki, dramaturgiya qonun-qoidalari bilan tanishtirish, eng muhimi K.Stanislavskiy aytganidek "Aktyor gapirishga usta bo'lmog'i kerak" fikriga e'tibor qaratishdir.

Keyingi mashg'ulotlarda aktyor-talabalarning fantaziyasini yanada charxlash maqsadida, turli xil turkumga xos predmetlar asosida hikoya yozish vazifasi berilishi mumkin. Masalan: oy, it, telefon, yoki buloq, maysa, shamol va h.k.

Ba'zan tarbiya kundalik hayotimizda qanchalik ehtiyojga aylangan bo'lsa, trening ham rejissor va aktyorlarga kundalik zaruratga aylanishi kerak. Ovoz yo'llari, gavda xatti-harakati kundalik mashqqa o'rganmasa, beo'xshov qomatga aylanadi, sahnani tezda tark etadi. Qomatining go'zalligi, plastik harakatlar bilan yuksak mahoratga ega bo'lgan san'atkor sahnada

uzoq yashaydi. Demakki, sahnnaviy ijodda mashqning o'z o'rni bor. Rejissor va aktyor ijodi mashq bilan uzviy bog'liqligini unutmaslik kerak.

Xotira bo'lajak rejissor uchun muhim kasbiy omil bo'lib, xotirani mustahkamlashga asoslangan trening mashqlari bo'lajak rejissorlarning kasbiy rivoji va yetukligini ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, bu borada "Yozuv mashinkasi" treningini olaylik.

Talabalar yarim aylana shaklida joylashadi. Ular ketma-ketlikda alifbodagi hafrlarni va tinish belgilarni aytishadi. Qaysi talaba qaysi harfni aytgan bo'lsa yozuv mashinkasidagi o'sha harf vazifasini bajaradi. Pedagog tarafidan biror bir jumla, gap yoki she'riy misralar aytishli mumkin. Masalan: "Yangi O'zbekiston" so'zi. Mazkur so'zni yozish uchun talabalar o'zlariga tegishli harflarni qarsak orqali aytishadi. Bunda so'zlar xuddi yozuv mashinkasi tugmachalari qatori yozilishi kerak. Gap oxirida talabalar birgalikda so'zlardagi har bir bo'g'inni qarsak bilan hamohang aytishadi.

Mashqning o'tkazilish tartibi va bajarilishi talabalar ongiga singdirilgach, ularni yozuv mashinkasi tugmachalari kabi joylashtiriladi. Ya'ni talabalar uch qatorda turishadi. Birinchi qator stillarga o'tiradi va harf yozayotganda o'rnidan turib, qarsak chaladi va o'zlariga tegishli harflarni aytishadi. Ikkinci qator tik turishadi va o'zlariga tegishli harflarni qarsak chalib aytishadi. Harf aytilayotgan vaqtda yarim o'tirib turiladi. Uchinchi qator stillar ustida chiqadi va o'zlariga tegishli harflarni aytishadi. Harf aytilayotganda, unga hamohang qarsak chalinadi va stillar ustida turgan holatda yarim o'tirib turiladi. Talabalarning bunday uch qatorda turishi xuddi zinadek pasttdan tepaga ko'tarilgan bo'ladi.

Diqqat rejissor va aktyorlik ijodida eng muhim va eng zarur elementlarining biridir. Inson hayotida diqqatsiz bir soniya ham yashay olmaganidek, aktyor ham sahnnaviy sharoitda uzlusiz diqqat mezonida yashamog'i kerak. Lekin shunisi borki, inson hayotning qonuni bo'yicha beixtiyoriy diqqat mezonida yashashni o'zida qoliplashtirib olgan bo'ladi. Qachon, qay mahal, qanday paytda qanday diqqat-e'tibor qilishga inson moslashadi. Shu sababli ham inson hayotida beixtiyoriy diqqat mezonida yashaydi. Ammo, sahnada esa, sahnnaviy ya'ni ixtiyoriy diqqat hayotdagidek o'zidan-o'zi kelib chiqmaydi. Aktyor uni o'z ixtiyori bilan, sahnadagi berilgan shart-sharoitga mos qilib, o'z qo'li bilan vujudga keltiradi. Chunki sahnnaviy hayot haqiqiy hayotning o'zi emas, uning aksi.

Sahnnaviy diqqatni rivojlantirish uchun diqqatga oid trening mashqlaridan foydalanish lozim. Bu borada, "Bozor" treningini olaylik. Talabalar ikki guruhga ajratiladi. Sahnuning ikki tarafidan parallel joylashtiriladi. Har bir talaba uchun to'g'rida joylashgan talaba sahnnaviy hamroh sanaladi. O'ng tarafdagilar sotuvchi, chap tarafdagilar xaridor vazifasini bajaradi. Pedagogning maxsus ko'rsatmasidan so'ng sotuvchilar o'z mollarini sotishni boshlaydi. Xaridorlar sotib olmoqchi bo'lgan mollarini arzonroq narxga, sotuvchilar esa qimmatroq narxga sotib olishga harakat qiladi. Xarid jarayoni xuddi bozordagi g'ala-g'ovurni eslatadi. Bunday vaqtda xaridordan sotuvchining gapini aniq eshtishi va esda saqlab qolishi talab etiladi. Chunki, xaridor va sotuvchi orasida kamida 2-3 metr masofa bo'ladi. Atrofda esa boshqa talabalar ham mazkur mashqni bajarayotgan bo'ladi.

Biroz vaqt o'tgach pedagog vazifani tugatishni so'raydi. Va xaridor talabalardan nima sotib olmoqchi bo'lganini, molning dastlabki narxi necha so'mligi, sotuvchi necha so'mga bermoqchi ekanligini va xarid vaqtida bo'lgan boshqa suhbatlarni so'raydi. Sotuvchining gaplarini nechog'lik eshitganligini bilish uchun sotuvchining o'zidan so'raladi. Bu mashq

talabaning nafaqat diqqatini, balki uning eshitish qobiliyatini ham kuchaytiradi. Mashq bajarilgach o'ng tomondagilar va chap tomondagilar vazifasi almashtiriladi.

Bo'lajak rejissor va aktyor uchun xotira, diqqat kabi tasavvur ham muhim ahamiyatga ega. Sahnaviy tasavvur bu – rejissor va aktyor o'z tasavvurida paydo bo'lgan voqealarni, ichki sezgilari orqali, xayolan ijob eta olishidir. Bu borada "Bu nima?" treningi ahamiyatli va samaraldir.

Birinchi talaba toza oq varaqqa qalam bilan bir chiziq chizadi. Keyingi talaba mazkur chiziqqa qarab tasavvurida paydo bo'lgan predmetni aytadi va o'zi ham ushbu chiziqqa bitta harakatdan iborat qo'shimcha chizadi. Uchinchi talaba varaqda paydo bo'lgan shaklga qarab tasavvurida paydo bo'lgan predmetni aytadi va o'zi ham ushbu shaklga bitta harakatdan iborat qo'shimcha chizadi. O'yin chizilgan shaklga hech kim hech qanday o'zgarishlar kirital olmagunicha davom etadi.

Trening mashqlari nafaqat birinchi bosqichda, balki har bir mashg'ulotdan avval bajarilishi, shuningdek aktyor va rejissorning bir umrlik hamrohiga aylanashi lozim.

Bo'lajak rejaissyrlarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda trening mashqlaridan foydalanish yuzasidan quyidagi xulosa va takliflar tavsiya etiladi:

- trening mashqlaridan foydalanish bo'lajak rejissorlarni mashg'ulotga tayyorlashning sinalgan usuli bo'lib mashg'ulotga tayyorlashda talabaning jismoniy va ma'naviy mas'ulligini ta'minlaydi;
- trening mashqlaridan foydalanish bo'lajak rejissorning xotirasini mustahkamlaydi, diqqatini oshiradi va tasavvurini boyitadi;
- trening mashqlaridan foydalanish bo'lajak rejissorning tafakkurini badiiy jihatdan rivojlantiradi, ijodiy fantaziyasini o'stridi;
- trening mashqlaridan foydalanish bo'lajak rejissorning kasb etikasini va kasbi kompetensiyasini takomillashtiradi.

**Xulosa va takliflar.** Trening mashqlari orqali o'z ijodini rivojlantirib borib, kamolotga yetkaza olmagan rejissor haqiqiy mutaxassis bo'la olmaydi. Rejissor ijodi tez olovlanib, uzoq yonadigan, tez soviydigan xususiyatga ega bo'lishi zarur. Bunday ijodiy cho'qqlarni rejissor uzoq yil davom etadigan kundalik mashqlar – treing mashqlari orqali zabit etishi mumkin.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. Darslik. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 424 b.
2. Egamberdiyev F.T. Estrada va ommaviy tomoshalar rejissurasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 356 b.
3. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. Darslik. – Toshkent: Bilim, 2005. – 192 b.
4. Mahmudov J., Mahmudova H. Rejissura asoslari. Darslik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 224 b.
5. Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Lesson press, 2019. – 220 b.
6. Mamatqosimov J.A. Estrada va ommaviy tomoshalar rejissurasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Lesson press, 2019. – 272 b.
7. Sayfullayev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 388 b.

8. Umarov M., Yuldashev T. Rejissorlik va aktyorlik san'ati asoslari. Darslik. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2018. – 320 b.
9. Usmonov R.I. Rejissura. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 1997. – 221 b.
10. Xolmirzayev B.M. Rejissorning spektakl ustida ishlash jarayoni. Darslik. – Toshkent: Musiqa, 2009. – 232 b.
11. Yusupova M.R. va boshqalar. Aktyorlik mahorati. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zR FA Asosiy kutubxonasi bosmaxonasi, 2015. – 128 b.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*N<sup>o</sup> 3 (3) – 2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**" электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).